

**O‘SMIRLIK DAVRI - SHAXSIY KAMOLOTNING SHAKLLANISHI SIFATIDA.**

**ADPI Abdulmadjidova M.D. ADPI talabalari  
Axinjonova Madinaxon va Mamatisakova Zilolaxon.**

**Annotatsiya:** Bu mavzuda O‘smir yosh davridagi bolaning psixologik, fiziologik xususiyatlari, muammolariva ularni bartaraf etishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** krizis davri, o‘tish davri, kattalik xissi, tanqidiy baxolash.

O‘smirlik davri Ayni paytda u bola emas katta ham emas deb ta’riflanadi. O‘smirlik davri "o‘tish davri", "krizis davri" deb nomlanadi. Bu davr 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va o‘z ichida 2 bosqichga bo‘linadi; 1-bosqichda o‘smir o‘zini bola deb emas kattalardek korsatishga harat qiladi. 2-bosqichda U o‘zini bola emasligiga to‘la qonli ishonib, "men" ini oldinga qoyadi. O‘smir yosh davrida psixologik va fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi. Psixologik o‘zgarishlarda bola ayni paytda o‘zi istayotgan xoxishlarini jismoniy jihatdan zaifligi sabab kelib chiqadi. Fiziologik o‘zgarishlar jinsiy yetilish bilan bogliq holda tanadagi barcha a’zolarining rivojlanishi va o‘sishi, organizmning qayta shakllanishi muhim ro‘l o‘ynaydi. Jumladan; bo‘y o‘sishi qiz bolalarda: 5-7 sm, o‘gil bolalarda: 5-10 sm o‘sadi. Ogiz bo‘shligi va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembiri o‘zgaradi. Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘proq darajada sodir bo‘ladi.

O‘smir yosh davridagi bola taqlidchan bo‘ladi, buning boisi ularda aniq bir fikrning dunyoqarash shakllanmaganligi bilan bog‘liq. U o‘zini kattalar yoki do‘stlari orasida o‘zini ko‘rsatib qo‘yishga intiladi. Bugun aktyor yoki qo‘shiqchiga taqlid qilsa, ertaga boshqa kasb vakillariga taqlid qilishi mumkin.

O‘smir kattalarga nisbatan qo‘pol muomilada bo‘lishi mumkin. Yoqimsiz xulq-atvor paydo bo‘lishi, o‘smirning tengdoshlari va jamoadagi mavqei, ota onasi va maktabdagi do‘stlari, o‘qtuvchi munosabatlari tufayli yuzaga keluvchi karakter belgisi hisoblanadi. Bu davrda o‘smir kattalar bilan munasabatda o‘zaro chegara saqlaydi va o‘zini mustaqil shaxs sifatida o‘z fikrini bayon etishi bilan tavsiflanadi. O‘smir asosan bu davrda salbiy fikrlashda va tanqidiy baholashda boshqa yosh davrlaridan farq qiladi. Ular ota onasi va o‘qtuvchilarining nutqidan kamchiliklariga tez-tez e’tibor berishadi.

O‘smirlik davrida psixologik jihatdan voyaga yetishi yoki kattalik hissini paydo bo‘lishining ahamiyati katta. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy soxada, aqliy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda, xulq atvorni ko‘rsatishda o‘z aksini topadi. O‘smir o‘zini aqliy jihatdan o‘sayotganini anglaydi va kattalarning g‘amxo‘rliqi, uning uchun qayg‘urishini xohlamaydi va kattalar bilan munosabatda bir qator muammolar kelib chiqadi. Ularning tashabbuskorligi, mustaqil bo‘lishga intilishini hisobga olgan holda o‘smir bn do‘stona muloqot qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi va ijobiy natija beradi.

O‘smirlik davri xususiyatlarini o‘rgangan psixolog D.B.ELKONIN va T.V. DRAGUNOVning ta’kidlashicha “Bu yoshda o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari, jamoasining hayotiga qiziqishida yorqin namoyon bo‘ladi” [1.152b].

Endilikda o‘smir uchun o‘rtoqlari bilan ko‘proq muloqot shakllanadi, endi ular Kichik maktab yosh davridagidek kattalar bilan bo‘lgan muloqot yoqimsezdek tuyila boshlaydi va do‘stlik munosabatlariga urg‘u bera boshlaydi.

Munosabatlar murakkablashgan bu davrda o‘smir bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, yaxshi tarbiya berish uchun qulay sharoit bu umumiy mehnat bilan shugillanirish.

V.A.KURETSKIY va N.S.LUKINning fikricha “Haqiqiy o‘rtoqlik va chinakkam do‘stlik-mardonavor o‘rtoqlik va talabchan do‘stlikdir” [2.153b] Endilikda do‘stlik munosabatlarini o‘zaro shakllantirib unga urg‘u berishni nazarda tutadi.

O‘smir davrining o‘qish faoliyatida uning o‘z o‘zini anglashi oshadi. O‘quv fanlarining ko‘payishi, axborot hajmini oshishi fikr yuritishiga sabab bo‘ladi. Kichik maktab yosh davrida olgan bilimlar bu davrga kelib yuqoriga ko‘tariladi va o‘smirning tafakkur shakllari rivojlanadi.

M.N.SHARDAKOVning fikricha “Tafakkurning o‘sishi o‘qitiladigan fanning ta’siriga bog‘liq ekanligi takidlanadi. Ya’ni ta’lim fanlarini o‘zlashtirilishi o‘qtuvchining mahoratiga

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

bog‘liq”. [3.160b.] O‘qituvchi qay darajada oquvchilarni darsga qiziqtirib turli metodlar bilan darsni olib borsada darsning ritmikligi bir xilda zerikarli emas yorqin o‘tishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda o‘smir yoshdagi bolalardagi psixologik fiziologik o‘zgarishlar bu davrning inqiroziga, shaxs bo‘lib shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu muammoli davrda o‘qituvchi va ota ona o‘smir bilan individual shug‘ullanishi, unda yuzaga kelgan muammolarini do‘stona, ortiqcha g‘amxo‘rliklarsiz, harakter xususiyatlarga e’tibor bergan holda unga yechim topishi, hattoki bu inqirozdan oqilona foydalangan holda bolani to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin. Agar bu davrdagi inqirozdan o‘smir yaxshi tarafga yo‘naltirilsa o‘spirinlik davriga ijobiy xarakter xususiyatlar bilan o‘tishi mumkin. Bevosita bu kelajakda uning shaxs bo‘lib shakllanishi, "men"ini to‘g‘ri baholashi va o‘zining pozitsiyasini to‘g‘ri qo‘ya olishiga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yhat.

1. E.G‘oziyev „Ontogenez psixologiyasi“ o‘quv qo‘llanma TOSHKENT "NIF MSH" 2020
2. E.G‘oziyev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997 yil.
3. M. Voshidov. «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1982 yil.
4. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh xatti psixologiyasi). T., O‘qituvchi, 1994 yil.
5. Davletshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A., To‘ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
6. Muxina V.S. "Shestiletnoy rebenok v shkole". M: 1986 yil